

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNING MEHNATINI TASHKIL ETISHDA FOYDALANILADIGAN DIDAKTIKA MAZMUNI

Maxammadiyeva Dildora Baxtiyorovna

Guliston shahar 18-sonli DMTT tarbiyachisi

Yo'lchiyeva Odina Alisher qizi

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning mehnat faoliyatini tashkil etishda foydalaniladigan didaktik vositalarning mazmuni, ularning bolalar rivojiga ta'siri va tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr va mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, mazkur vositalarni samarali qo'llash yo'llariga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, mehnat, didaktika, maktabgacha yosh, ta'lim, tarbiya vosita didaktika

СОДЕРЖАНИЕ ДИДАКТИКИ, ИСПОЛЬЗУЕМОЙ В ОРГАНИЗАЦИИ ТРУДА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В данной статье изложены мнения и рассуждения о содержании дидактических средств, используемых при организации трудовой деятельности детей дошкольного возраста на основе государственной учебной программы «Ilk qadam», их влиянии на развитие детей и воспитательное значение. Также уделено внимание эффективным способам использования этих средств.

Ключевые слова: Дошкольное образование, труд, дидактика, дошкольный возраст, обучение, воспитание, дидактическое средство.

THE DIDACTIC CONTENT USED IN ORGANIZING THE LABOR OF PRESCHOOL-AGED CHILDREN

Annotation: This article presents thoughts and considerations about the content of didactic tools used in organizing the labor activities of preschool-aged children based on the state educational program "Ilk Qadam", their impact on child development, and their educational significance. Attention is also given to effective methods of utilizing these tools.

Keywords: Preschool education, labor, didactics, preschool age, education, upbringing, didactic tool.

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli, yuqori ma'naviyatga ega va barkamol avlodni tarbiyalash yo'lida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bolalarning ilk yoshidan boshlab ta'lim-tarbiya berish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, zamonaviy talablar asosida faoliyat yurituvchi maktabgacha ta'lim

tashkilotlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 9-sentabrda imzolangan PQ-3261-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror bu yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qarorda, maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan dastlabki bilimlar, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ongiga singdirish jarayonlari ularning kelgusidagi hayoti va shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omil ekani alohida ta'kidlab o'tilgan. Zero, maktabgacha ta'lim — bu nafaqat boshlang'ich tarbiya, balki har tomonlama barkamol, uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim po'ydevor hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ushbu tadqiqot jarayonida yurtimizda ta'lim-tarbiya sohasi rivojiga katta hissa qo'shgan yetuk olimlar – Z. Nishonova, F. Qodirova, L.S. Vigotskiy, N. Yashina, M.Sh. Nurmatova, Sh. Xasanova va boshqa mutaxassislarning ilmiy ishlari asos qilib olindi hamda ularning tajriba va ilmiy yondashuvlaridan keng foydalanish imkoniyati yaratildi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Zamonaviy bolalar adabiyoti – jumladan, hikoya va she'riy janrdagi asarlar – mehnatsevarlik g'oyasini targ'ib qilish, dangasalikni esa qoralash orqali bolalarning ijtimoiy qarashlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jihatdan ayniqsa "Ilk qadam" o'quv dasturining ahamiyati beqiyosdir. Mazkur dastur bolalar va tarbiyachilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga keng imkon yaratgan bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning qiziqishlari, kayfiyatlari tez-tez o'zgarib turishi inobatga olingan. Shuning uchun ham o'quv faoliyatlari integratsiyalashgan holda tashkil etiladi va bu bolalarning barcha ehtiyojlari hamda bilishga bo'lgan chanqoqlarini qondirishga xizmat qiladi.

"Ilk qadam" dasturining ta'limiy jarayonni mavzulashtirilgan rejalashtirishga oid ilovasida bolalar mehnatini tashkil etish alohida e'tiborga loyiq. Ayniqsa, kundalik tartibda sayr vaqtida, tabiat kuzatuvlaridan so'ng amalga oshiriladigan mehnat faoliyatlari bolalarning mehnatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bolalarda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish mehnati – kiyimlarini yechish va tartib bilan shkafga ilish, mashg'ulotda kerakli anjomlarni topib ishlatish, o'z qalamini ochish kabi oddiy harakatlar orqali asta-sekin rivojlanadi. Aslida, bola uchun har qanday harakat bir turdagi mehnat faoliyati hisoblanadi. Tarbiyachi pedagog esa kun davomida ushbu mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashda izchil ish olib boradi. Maktabgacha ta'lim muassasasida barcha turdagi mehnat faoliyatlarini o'rgatish, ayniqsa tabiatdagi mehnatning o'рни beqiyosdir. Chunki bu orqali bolalar o'simlik va hayvonot olami, yil fasllari, hamda jonsiz tabiat haqida muhim bilimlarga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ular mehnatsevarlik, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini o'zlashtiradilar. Tabiat qo'ynidagi faoliyatlar – yer tayyorlash, o'g'itlash, ko'chat o'tqazish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi mehnat malaka va ko'nikmalarini egallashga xizmat qiladi. Ochiq havoda bajariladigan bunday faoliyatlar bolalar sog'lig'ini mustahkamlashda, ularning jismoniy chiniqishida ham alohida ahamiyatga ega.

Shuni unutmaslik kerakki, mehnat tarbiyasi avvalo oilada – bola o'zini anglay boshlagan ilk bosqichdan boshlab shakllanishi lozim. Agar bu jarayon o'z vaqtida

boshlanmasa, bola faqat iste'molchilik ruhida tarbiyalanib, kelajakda dangasa va ijtimoiy faoliyatsiz shaxs bo'lib shakllanishi mumkin. Tarbiyachi mashg'ulotlarda bolalarga insonning mehnati natijasida buyumlar yaratilishi haqida tushuncha berib borishi, ularni kattalar mehnati bilan tanishtirib borishi zarur. Mehnat faoliyati – insonni hayvondan ajratib turuvchi asosiy omillardan biri sifatida tushuntirilib, bolalarning ongiga singdirilishi kerak. Tarbiyachi pedagog bolalarga inson mehnati orqali tabiatni o'zgartirish, undan oqilona foydalanish imkoniyati mavjudligini, cho'llarning bog'-rog'larga aylanishi orqali yorqin misollar bilan tushuntirishi lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, ularni kattalarning mehnatiga hurmat bilan qarashga o'rgatish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Zamonaviy maktabgacha ta'limda pedagoglardan mehnatning yangi turlarini bola ongiga singdirish, ularning mustaqil vazifalar bilan tanishishiga imkon yaratish talab etiladi. Ixtisoslashuv jarayonida tabiat sirlari chuqurroq o'rganiladi, resurslardan samarali foydalaniladi, hatto ularning xossalari o'zgartiriladi. Shu sababli, bolalarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirish, avvalo, mehnat turlarini o'rgatish orqali amalga oshirilishi lozim. Bu jarayonni ijodiy ishlarga yo'naltirish orqali yanada samarali qilish mumkin, chunki ijodkorlik orqali bola o'ziga mos mehnat turini anglaydi, mustaqil ravishda qo'llay boshlaydi. Shu boisdan ham mehnat faoliyatlari imkon qadar xilma-xil shakllarda tashkil etilishi, bolalarning aqliy va jismoniy imkoniyatlariga mos bo'lishi zarur. Mehnat tarbiyasi – bu bolalarda mehnatning mohiyatini tushuntirish, ijtimoiy foydali faoliyatga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon bo'lib, u ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismidir. Shuningdek, mehnat orqali bolalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar shakllanadi, ular har tomonlama rivojlanadi, kelgusidagi kasbiy faoliyatga ruhiy tayyorgarlik hosil qiladi, mehnat qilishga qiziqish paydo bo'ladi va bu esa ularning sog'lom, faol shaxs sifatida kamol topishida muhim rol o'ynaydi.

XULOSA. Yosh avlodda mehnat tarbiyasini shakllantirish, ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash hamda jamiyat manfaatlari yo'lida mehnat qilish ehtiyojini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Bolalarni o'z mehnati bilan shug'ullanishga o'rgatish, ularning yosh xususiyatlariga mos tarzda yondashishni talab etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari asosida ishlab chiqilgan "Ilk qadam" o'quv dasturida mehnat tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan.

Tarbiyachining ish jurnalida mehnat tarbiyasiga oid bo'limni yuritish orqali ushbu yo'nalishdagi vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Bolalarni mehnat faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishtirish, mehnatning maqsadi va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, shuningdek, mehnat materiallarini tanlashga o'rgatish jarayonlari ketma-ketlikda olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Takomillashtirilgan Ilk qadam davlat o'quv dasturi. 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi⁹



2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-2017, 489.
3. D.Q. Asqarova “Bolalalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi” o’quv qo’llanma. Toshkent-2020, 12.
4. O. Fozilova., I. Turaqulov Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. O’quv qo’llanma. Farg’ona-2023